

# QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA KRIMINAL ASARLAR:

(Agata Kristi va Tohir Malik asarlari asosida)

*Sultonova Dilnoza Sohibjonovna,*

*Namangan davlat universiteti*

*doktoranti(DSc)*

[dilnozasultonova@748gmail.com](mailto:dilnozasultonova@748gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek adabiyotida kriminal mavzudagi asarlar uslubiy o'ziga xos xususiyatlari mashhur kriminalist yozuvchilar Agata Kristi va Tohir Malik asarlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda kriminal adabiyotdagi stilistik vositalar, konfliktlar dinamikasi va detektiv elementlarning funksional xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishga alohida ahamiyat beriladi. Tadqiqot natijalari kriminal asarlarni yaratish jarayonida qo'llaniladigan adabiy vositalar va metodlarning o'ziga xosligi, ularning asar ta'sirchanligi va badiiyatiga ta'sir qiluvchi omillarni keng qamrovda ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Kriminal asarlar, uslubiy o'ziga xoslik, Agata Kristi, Tohir Malik, detektiv asar, adabiy tahlil, voqea rivoji.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются стилистические особенности криминальной прозы в английской и узбекской литературе на примере произведений известных писателей-криминалистов Агаты Кристи и Тохира Малика. Особое внимание уделяется сравнительному анализу стилистических средств, динамике конфликтов и функциональным характеристикам детективных элементов в криминальных произведениях. Результаты исследования демонстрируют уникальные литературные приёмы и методы, применяемые при создании криминальных сюжетов, а также

раскрывают факторы, влияющие на их выразительность и художественную ценность.

**Ключевые слова:** Криминальная проза, стилистические особенности, Агата Кристи, Тохир Малик, детектив, литературный анализ, развитие сюжета.

**Abstract.** This article analyzes the stylistic peculiarities of crime fiction in English and Uzbek literature, focusing on the works of renowned crime writers Agatha Christie and Tohir Malik. The study pays particular attention to the comparative analysis of stylistic devices, the dynamics of conflict, and the functional features of detective elements in crime fiction. The findings of the research highlight the unique literary tools and methods employed in crafting crime narratives, offering a comprehensive view of the factors that influence their impact and artistic value.

**Keywords:** Crime fiction, stylistic features, Agatha Christie, Tohir Malik, detective story, literary analysis, plot development.

**Kirish.** Kriminal adabiyot jahon adabiyotining ajralmas qismi bo'lib, insoniy tuyg'ular, huquqiy muammolar va jinoyatchilik kabi mavzularni qamrab oladi. Ushbu janrda qiziqarli syujetlar, o'ziga xos uslubiy vositalar va sirlarga boy tasvirlar orqali o'quvchini jalb qilish asosiy maqsad hisoblanadi. Ingliz va o'zbek adabiyotida kriminal janrning yetakchi vakillaridan biri sifatida Agata Kristi va Tohir Malik ijodi e'tiborga loyiqdir. Ushbu maqolada mazkur ikki zabardast yozuvchilar asarlarining uslubiy o'ziga xosliklari va ularning kriminal janrni shakllantirishdagi vositalari tahlil qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ushbu mavzuni ilmiy jihatdan o'rganishda badiiy adabiyotda uslub muammosini keng tadqiq etgan qator mutaxassislar asarlaridan keng foydalanildi.

Shu davrga qadar ingliz va boshqa jahon adabiyotshunoslari [3, 7]; rossiyalik olimlar [15, 16] hamda bir qator o'zbek adabiyotshunoslari [1, 12, 14] o'z

tadqiqotlarida, sohaga oid monografiya va darsliklarida badiiy asarlar uslubi masalasini o'rganishgan.

Ingliz badiiy kriminalistik asarlar esa bir qator ingliz olimlari [7, 8, 9, 10, 11] tadqiqotida, shuningdek, kriminalistik badiiy asarga Routlej ko'rsatmalari to'plami hamda ("The Routledge Companion to Crime Fiction") [13], Kansas Yozuvchilar uyushmasi sayti [2] materiallarida chuqur o'rganilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada kriminal asarlarning uslubiy xususiyatlari va ularni shakllantiruvchi vositalar o'rganilgan. Tadqiqotning metodologiyasi bir nechta ilmiy yondashuvlarga asoslanadi, shu jumladan kontent-tahlil, stilistik tahlil, psixologik tahlil va strukturaviy yondashuvlar. Har bir metodologik yondashuv uslubiy vositalarning muayyan jihatlarini ochib berishda yordam beradi.

**Tahlil va natijalar.** Ushbu tadqiqotda ingliz va o'zbek adabiyotidagi kriminal asarlar uslubining o'ziga xosligi va uni shakllantiruvchi vositalar mazkur xalqlar adabiyotidagi ikki zabardast yozivchilar Agata Kristi va Tohir Malik asarlari asosida o'rganildi. Bu borada ular ijodidagi mushtarak va farqli jihatlarni aniqlashga alohida ahamiyat qaratildi.

**Agata Kristi va uning kriminal asarlari uslubi.** Agata Kristi jahon detektiv adabiyotining eng mashhur vakillaridan biri bo'lib, uning asarlari o'ziga xos uslubi, murakkab syujetlari va kutilmagan yakunlari bilan ajralib turadi. Uning eng mashhur qahramonlari bo'lmish Erkyul Puaro va miss Marpl jinoyatlarni ochishda o'zlarining intellektual qobiliyatlari, kuzatuvchanligi va tahliliy fikrlash qobiliyatlari bilan tanilgan. O'rganish va tadqiqotlarimiz natijasida adibaning kriminal mavzudagi asarlarining o'ziga xos uslubiy xususiyatlarini quyidagi jadval (1-jadval) da umumlashtirdik.

| No | Uslubiy xususiyatlar                       | Izoh                                                                     |
|----|--------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------|
| 1. | <b>Murakkab syujet va kutilmagan yakun</b> | U asarlarida ko'pincha bir nechta gumonlanuvchilarni kiritib, o'quvchini |

|    |                                         |                                                                                                                |
|----|-----------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|    |                                         | chalgʻitish usulidan foydalanadi.                                                                              |
| 2. | <b>Tafsilotlarga eʻtibor</b>            | Har bir kichik tafsilot oxir-oqibat jinoyatning ochilishida muhim rol oʻynaydi.                                |
| 3. | <b>Tilda soddalik va aniq tasvirlar</b> | Uning hikoya qilish uslubi soddaligi va oʻquvchini zeriktirmaydigan dinamikasi bilan ajralib turadi.           |
| 4. | <b>Psixologik portret yaratish</b>      | Qahramonlar ichki dunyosi va ularning harakatlariga sabab boʻluvchi psixologik holatlar mukammal tasvirlanadi. |

**1-jadval. Agata Kristining kriminal mavzudagi asarlaridagi uslubiy xususiyatlar.**

**Tohir Malik va uning kriminal asarlari uslubi** Tohir Malik oʻzbek adabiyotida kriminal mavzudagi asar yozuvchilaridan biri hisoblanadi. Uning mashhur “Shaytanat” romanlar turkumi jinoyatchilik, adolat, iymon va insoniy qadriyatlar muammolarini yoritib beradi.

Kriminalist adiblar sujet va xarakter rivojlanishi nuqtayi nazaridan shubha yaratish uchun keskinlikdan foydalanadilar. Bu keskinlik koʻpincha voqealarning bir tekis rivojlanmasligi, kutilmagan sujet burilishlari va qahramonlarning hiylanayranglari yordamida yuzaga keltiriladi.

Jumladan, Tohir Malikning “Alvido... bolalik” asarida qotillikka aralashib qolgan har bir obraz oʻz bilganicha oʻzini saqlab qolish uchun “sabab”lar oʻylab topishadi, jazodan qutulib qolishlariga ishonishadi va oʻquvchini ham maʼlum maʼnoda bunga ishontirishadi. Lekin asar soʻngiga yaqinlashgan sari voqealar surʼati tezlashib ketadi va ular topgan sabab va bahonalar ish bermay, barchasi qilmishiga yarasha jazolanadi [5].

“Alvido...Bolalik” asarida jinoyat mavzusini taʼsirchan yoritishda yana peripetiya usulidan mohirona foydalanilgan lavhalar uchraydi. Ulardan biri – Salimning qotillik paytida oyogʻidan jarohat olishi. Sportda toblangan navqiron yoshdagi bolaning bu jarohati uning oʻlimiga sababchi boʻlishi va jinoyatni

ochishda muhim detallardan biriga aylanishi ana shunday kutilmagan vaziyatlardan biridir.

Umuman olganda, adib Tohir Malik o'zbek adabiyotida kriminal va detektiv asarlar yozishda o'ziga xos maktab yarata olgan ijodkordir. Uning ijodidagi o'ziga xosliklarni quyidagi jadval (2-jadval)da umumlashtirdik:

| №  | Uslubiy xususiyatlar                                 | Izoh                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |
|----|------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | <b>Reallik va hayotiy tafsilotlarga urg'u berish</b> | Asarlarida real hayotdagi jinoyatchilik dunyosi, uning ijtimoiy va huquqiy jihatlari keng yoritiladi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
| 2. | <b>Dialoglar va ichki monologlar</b>                 | Qahramonlar orasidagi dialoglar tabiiy va ishonarli, ularning ichki kechinmalari esa chuqur psixologik tahlil orqali ifodalanadi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
| 3. | <b>Qiziqarli va keskin syujet</b>                    | Uning romanlari odatda dramatik to'qnashuvlar, shiddatli voqealar va o'quvchini o'ziga jalb qiluvchi sirlar bilan boyitilgan. jinoyat asarlari o'zining tezkor sujeti va voqealar rivojining shiddatli tarzda kechishi bilan mashhur. Yozuvning bunday uslubi natijasida voqealar shiddat bilan rivojlanib boradi. Voqealar rivojidadagi bu tezlik ham o'quvchining asar oxiriga qadar diqqatini chalg'itmay turishida muhim ahamiyatga ega. |
| 4. | <b>Axloqiy va ijtimoiy masalalarni qamrab olish</b>  | Adabiyot faqatgina jinoyat va tergov jarayonlarini emas, balki jamiyatning axloqiy holatini ham o'z ichiga oladi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |

**2-jadval. Tohir Malikning kriminal mavzudagi asarlaridagi uslubiy xususiyatlari.**

**Agata Kristi va Tohir Malikning kriminal mavzudagi asarlari qiyosiy tahlili.** Agata Kristi va Tohir Malik asarlari o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar quyidagicha umumlashtirilishi mumkin:

**1. Syujet tuzilishi.** Agata Kristi syujetlarini murakkab qilib qurib, asarning oxirida kutilmagan yakun orqali o'quvchini hayratga soladi. Tohir Malik esa voqealar rivojini hayotiy faktlarga asoslanib, realistik tasvirlashga e'tibor qaratadi.

Kriminalistik asarlarda qahramon sifatida tanlangan jinoyat olami vakillari ko'pincha murakkab xarakterdagi shaxs sifatida gavdalantiriladi. Yozuvchi uslubi ko'p hollarda qahramon ichki kechinmalarining qorong'i tomonlarini ko'rsatish,

o'quvchini uning ichki istaklari va fikr-mulohazalarini to'laqonli ochib berish orqali bu xususiyatni aks ettiradi. Bu holat ayniqsa, qotillik romanlarida bo'rtib ko'rinadi. Agata Kristining mashhur "O'nta negr bolasi" ("Ten Little Niggers", 1939) asarida orolga borib qolgan kishilar faqat o'zlari tirik qolishlarini o'ylab, mulohazasiz harakat qiladilar. Aslida qotil – jinoyatchi bo'lgan mazkur kishilarning bu xususiyatlarini yaxshi bilgan asosiy qahramon ularni hech qiyinchiliksiz bitta-bitta mahv etadi [3].

Quyida ushbu asardan parcha keltiramiz:

–To'pponchani bu yoqqa bering, buyurdi u.

Vera kula boshladi.

–Qani, menga bering, dedi Lombard. Uning miyasi aniq ishlardi: "Nima qilsin? Unga qanday yaqinlashsin? Chalg'itsinmi? Qo'rqitsinmi? Yo shunchaki to'pponchani tortib olsinmi? Lombard butun umr tavakkal qilgan. O'zgaraman desa endi kech".

–Menga qarang, jonginam, sizga bir gap aytaman, deya dona-dona gapira boshladi. Lekin jumlasini tugatmay, birdan unga tashlandi. Sirtlon, yo'lbars, hatto ular ham bunday jahd bilan tashlanmasdi...

Vera beixtiyor tepkini bosdi... O'q Lombardni teshib o'tdi. So'ng qoyaga gursullab quladi [4].

"Alvido... bolalik" asarida yaxshi kunlarida oralaridan qil o'tmagan qahramonlar qotillikka aloqadorlik haqidagi surishtiruv ishlari chuqurlashgani sari har biri oz jonini saqlab qolish uchun harakat qilishadi. Quyida Asrorning shu vaziyatdagi o'y-fikrlarini keltiramiz:

"Asror yigirma qadamcha yurib orqasiga o'girildi. Yigitning hanuz qarab turganini ko'rib qadamini tezlatdi. Endi u qayerga borsin? Kim dardiga malham beradi? Kim tashvishiga sherik bo'ladi!.. Hech kim, hatto Qamariddin ham, Salim ham tushunmaydi uni" [5; 102].

**2. Qahramonlarni gavdalantirish masalasi.** Agata Kristi asarlarida tergov jarayoniga e'tibor kuchliroq qaratiladi, ya'ni jinoyatni fosh etuvchi qahramonlar

asosiy rol o'ynaydi. Tohir Malik esa jinoyatchilar ruhiyati va ularning psixologik holatlarini chuqur tahlil qiladi. Xarakter yaratish ingliz va o'zbek adabiyotidagi jinoyat mavzusidagi asarlar uslubining yana bir muhim elementi bo'lib, u ko'proq dialog yordamida namoyon bo'ladi. Dialog asarlarda personajlar va ularning munosabatlarini rivojlantirish uchun keng qo'llaniladi. Kriminal asarlar aksar hollarda ko'p sonli qahramonlar guruhiga ega bo'lib, ularning har biri o'z motivlariga va asar sujetida o'z o'rinlariga ega bo'lishadi. Natijada, dialog personajlarni bir-biridan farqlash, har birining ovozi va ohangini berish uchun ishlatiladi. Bu personajlar xarakterini ko'rsatishda realizm va puxta ishlanganlik tuyg'usini yaratadi, ularni o'quvchilarga ko'proq va esda qolarli qiladi. Tohir Malikning besh kitobdan iborat "Shaytanat" romanini olsak, unda necha taqdir, personajlar hayoti o'tadi. Lekin har biri kitobxon ongida o'ziga xos tarzda gavdalanib qoladi.

**3. Til vositalaridan foydalanishdagi o'ziga xoslik** – Agata Kristi aniq va soddaligi bilan ajralib tursa, Tohir Malik asarlarida o'zbek adabiy an'analari, milliy tasviriy vositalar va realistik dialoglar ustunlik qiladi. O'zbek adabiyotshunos va tilshunoslari noadabiy qatlamlar mavzusiga oid misollar qidirishda ko'pincha iste'dodli adib Tohir Malikning "Shaytanat", "Alvido... bolalik" singari asarlariga murojaat qiladilar. Chunki bunday jinoyat mavzusidagi asarlarda boshqa asarlardan ko'ra umumxalq va ayniqsa, bezorilar tili bo'lgan "ko'cha tili"ga oid leksik qatlam ko'p uchrashini yaxshi bilishadi.

"Shaytanat" romani 3-kitobidan olingan quyidagi parchaning o'zidan ham bunga ishonch hosil qilish mumkin (**Ta'kidlar – Sultonova D.ga oid**):

"Yigit:

– **Vey, paxan**, uylar **nishtyak-ku**, a? Qoyilman, **erkak**, qoyilman, **gap yo'q!**  
– deb so'rashmoq uchun qo'l uzatdi. – Shu ko'chaga yo'lim tushib **qoluvdi**, **paxanni** bir ko'rib ketay, dedim. **Bratanlar "qadrdon bo'p qoluvdik, ja daraklari yo'q", deb xapa bo'lishdi.** Meni tanidingizmi, o'zi?

– Tanidim, – dedi Sharif, ensasi qotganini yashirmay.

– Qoyilman! **Pamyati zo‘r odamlarga besh ketaman.** Men **bratanlarga** aytdim. “**Paxan unutadigan tarvuzlardan emas**”, dedim. **Bratanlar** meni **omonatni olib kelishga** yuborishdi” [6; 97].

Uslubiy chegaralangan leksikaga mansub bunday jargon, argo va varvarizmlarning qo‘llanilishi jinoyat mavzusidagi asarlar tilining jonli, voqealar tasvirining ishonchli chiqishida katta o‘rin egallaydi.

Ushbu ixcham til kriminalistik asarlarni boshqa mavzulardagi adabiyot namunalaridan ajratib turadigan omillardandir va ko‘pincha asar mavzusi va xarakterini shakllantirish uchun muhim bo‘lgan ohangni belgilaydi.

**Xulosa va takliflar.** Kriminal asarlar o‘zining o‘ziga xos uslubi bilan adabiyotda alohida o‘rin tutadi. Ushbu janrda voqealar rivoji, syujet strukturasining nozikligi, personajlar va ularning psixologik tahlili, shubha va dramatik elementlar asarning asosiy uslubiy vositalarini tashkil etadi. Kriminal asarlarda uslubning o‘ziga xosligi o‘quvchining diqqatini voqealar rivojiga qaratishda, shuningdek, personajlarning ichki dunyosini ifodalashda katta ahamiyatga ega. Syujetning murakkabligi va nozik yoritilishi, til va stilistik vositalarning maxsus ishlatilishi janrning asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kriminal asarlar nafaqat ma’lum bir syujetni taqdim etish, balki o‘quvchini psixologik va hissiy jihatdan bog‘lashga qaratilgan. Ularning uslubi va shakllantiruvchi vositalari janrning o‘ziga xosligini va uning o‘quvchi bilan aloqasini mustahkamlaydi.

Ushbu tadqiqotni olib borish natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari surildi:

1. Kriminal janr bo‘yicha adabiy solishtirma tadqiqotlar sonini ko‘paytirish kerak, chunki bu janr nafaqat o‘quvchini jalb etadi, balki jamiyatdagi muhim ijtimoiy va axloqiy masalalarni yoritishda ham samarali vositadir.

2. O‘zbek kriminal adabiyotini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish maqsadida Tohir Malik va boshqa yozuvchilarning asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish va tahliliy maqolalar bilan birga nashr etish lozim.

3. Adabiyotshunoslik sohasida kriminal janr bo'yicha ixtisoslashgan o'quv kurslarini tashkil qilish, bu orqali yoshlarda janrga nisbatan chuqur qiziqish va badiiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

4. Kriminal asarlar asosida zamonaviy media mahsulotlar (serial, film, podkast) yaratish orqali ushbu janrning ommabopligini oshirish, yosh avlodda kitobxonlikka bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

5. Milliy adabiy maktablar doirasida jinoyat janrining shakllanishiga oid qo'llanmalar ishlab chiqish, bu orqali yozuvchilar va tadqiqotchilar uchun metodik asos yaratiladi.

Umuman olganda, ingliz va o'zbek adabiyotidagi kriminal mavzudagi asar yozuvchilaridan Agata Kristi va Tohir Malik uslubi bir-biridan farqlansa ham, ularning asarlari o'quvchini jinoyat va adolat o'rtasidagi ziddiyatlarni chuqur anglashga undaydi. Agata Kristi o'quvchini aql-idrok orqali jinoyatni fosh qilishga undasa, Tohir Malik jamiyatdagi jinoyatchilikning sabab va oqibatlarini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Ularning asarlari kriminal mavzudagi asarni o'ziga xos shakllantiruvchi vositalarni o'z ichiga olgan bo'lib, bu asarni jahon adabiyotida muhim o'rin egallashiga xizmat qilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: “O‘zbekiston”, 2002. – B.550
2. Kansas Writers Association. Crime Fiction – Sub-Genres. Available at: <https://kwawriters.org/handouts/older-handouts/crime-fiction-sub-genres/> (Accessed 02.04.2025).
3. Christie, A. Ten Little Niggers. – UK: Collins Crime Club, 1939. – P.380.
4. Kristi A. O'nta negr bolasi. . – T.: “Yangi asr avlodi”, 2014. – B. 204.
5. Malik T. Alvido ... bolalik. – T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. – B. 224.
6. Malik, T. Shaytanat. 3-kitob. Tanlangan asarlar. 20-jild. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2019. – B. 248.

7. Mansoor M., Salman Y. Linguistic Deviation in Literary Style Science. *University - Erbil Journal of Humanities and Social Sciences*. IV (1), 2020. – P. 10.
8. Philips, B. Crime Fiction: A Global Phenomenon. *IAFOR Journal of Literature & Librarianship*. 5 (1), Autumn, 2016. –P. 5-15.
9. Robinson J.M. The Philosophical Review, Vol. 94, No. 2 (Apr, 1985). – P. 227-247.
10. Rzepka Ch. Introduction: What is crime fiction?. *A Companion to Crime Fiction*. (Ed. by Rzepka Ch. J. and Horsley L. ) Blackwell Publishing Ltd. Publication. 2010. – P.649
11. Scaggs J. Crime Fiction. 1st edition. Taylor and Francis. 2005. – P. 184.
12. Tashmuxamedova L. I. Adabiyot tarixi va nazariyasi . 1-qism: o‘quv qo‘llanma. - T.: «Noshir» 2019. -160 b.
13. The Routledge Companion to Crime Fiction (Ed. by Allan, J., Gulddal, J., King, S., and Pepper, A.). Routledge Taylor & Francis Group, 2020. – P. 859.
14. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: “Sharq”, 2008. – B. 368.
15. Минералов, Ю. И. Основы теории литературы. Поэтика и индивидуальность : учебник для вузов \ Минералов Ю.И. 2-е изд., испр. и доп.– Москва: Издательство Юрайт, 2023.– С. 328.
16. Чернец Л.В., Хализев В.Е., Бройтман С.Н. Введение в литературоведение. Учебное пособие. – М.: Высшая школа; Академия, 1999. – С. 556 .